


## SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 11 897 tani tashkil etdi, shundan 9 763 tasi yoki 82,1 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.



*Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).*



Soni



O'sish sur'ati

Yil	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	11 897	9 837	9 763
2024	12 176	10 035	9 970
2023	13 339	11 212	11 151
2022	16 793	14 668	14 602
2021	16 407	14 364	14 308

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shahrida – 24,6 foiz, Sirdaryo – 12,4 foiz, Boyovut – 9,0 foiz, Sardoba – 8,9 foiz va Mirzaobod – 8,7 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi salmoqli ulushi Sardobada – 88,1 foiz, Yangiyer shahrida – 87,8 foiz, Mirzaobod – 85,6 foiz hamda Oqoltin – 85,6 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>11 897</b>	<b>9 837</b>	<b>9 763</b>
<i>Tuman va shaharlar:</i>			
Guliston shahri	2 932	2 383	2 361
Yangiyer shahri	281	218	215
Shirin shahri	863	758	756
Boyovut tumani	1 066	847	842
Guliston tumani	846	689	688
Mirzaobod tumani	1 033	884	874
Oqoltin tumani	803	687	686
Sayxunobod tumani	822	668	662
Sardoba tumani	1 059	933	926
Sirdaryo tumani	1 477	1 221	1 208
Xovos tumani	715	549	545

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

## Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-sentabr holatiga faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida bo'lib, uning jami korxonalar sonidagi ulushi 30,1 foizni tashkil etdi.

Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 16,9 foizni, uchinchi o'rinda "Sanoat" 9,9 foizni tashkil etdi.

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 56,9 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.



### Korxonalar va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
<b>Jami:</b>	<b>11 897</b>	<b>9 837</b>	<b>9 763</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 008	1 992	1 981
Sanoat	1 179	1 172	1 144
Qurilish	832	822	817
Savdo	3 576	3 575	3 570
Tashish va saqlash	277	275	274
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	697	695	694
Axborot va aloqa	201	191	189
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	202	141	137
Boshqa turlar	2 925	974	957

## II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, 9 837 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 8 502 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi.

### *Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)*

	2021	2022	2023	2024	2025
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	10 664	11 462	9 394	8 544	8 502
Xususiy korxonalar	2 956	2 447	1 308	993	906
Oilaviy korxonalar	366	361	245	302	268
Aksiyadorlik jamiyati	21	20	11	11	13
Boshqalar	357	378	254	185	148

Shundan kelib chiqib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	8 502	86,4
Xususiy korxonalar	906	9,2
Oilaviy korxonalar	268	2,7
Aksiyadorlik jamiyati	13	0,1
Boshqalar	148	1,6

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyat soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

### III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


Mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida, iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar jami soniga nisbatan eng katta ulushi Sirdaryo tumani 27,1 foiz, Guliston shahri – 22,1 foiz, Yangiyer shahri – 12,8 foiz va Mirzaobod tumani – 8,1 foizga to'g'ri keladi.

Hududlar	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>258</b>	<b>86</b>	<b>172</b>
<i>Tuman va shaharlar:</i>			
Guliston shahri	57	14	43
Shirin shahri	14	4	10
Yangiyer shahri	33	9	24
Boyovut tumani	18	3	15
Guliston tumani	7	1	6
Mirzaobod tumani	21	11	10
Oqoltin tumani	5	2	3
Sardoba tumani	7	3	4
Sayxunobod tumani	10	3	7
Sirdaryo tumani	70	33	37
Xovos tumani	16	3	13

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 258 ta korxonalaridan 86 tasi qo'shma korxonalar va 172 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2025-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024- yilning mos davriga nisbatan 49 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 100 tadan 125 taga, (o'sish 25 taga), axborot va aloqa sohasida 15 tadan 29 taga (o'sish 14 taga) va savdo sohasida 43 tadan 46 taga (o'sish 3 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami:</b>	<b>258</b>	<b>86</b>	<b>172</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	30	14	16
Sanoat	125	48	77
Qurilish	6	3	3
Savdo	46	11	35
Tashish va saqlash	7	4	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	1	2
Axborot va aloqa	29	-	29
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-
Boshqa turlar	12	5	7

### Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 104 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 40,3 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (14,0 %), Turkiya (9,3 %), Qozog'iston (7,0 %) va Tojikiston (7,0 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Xitoy	104	30	74
Rossiya	36	13	23
Turkiya	24	8	16
Tojikiston	18	6	12
Qozog'iston	18	8	10
Afg'oniston	15	4	11
Qirg'iziston	7	2	5
BAA	8	1	7
Buyuk Britaniya	6	3	3
Janubiy Koreya	6	1	5
Ozarbayjon	4	3	1
Pokiston	4	1	3
AQSH	4	2	2

#### IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

##### **Metama'lumot uchun havolalar:**

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)  
[Glossariy](#)  
[Statistik klassifikatsiyalar](#)

##### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)  
[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)  
[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)  
[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)  
[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)  
[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)  
[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)  
[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)  
[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)  
[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)  
[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)  
[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)  
[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)  
[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)  
[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)  
[Soq'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Raqamlashtirish va statistik  
regisrlarni yuritish bo'limi

**Ijrochi:**  
B. Axmedov  
67 236-70-00 (2060)

**Maznil:**  
120100, Guliston sh.,  
Birlashgan ko'chasi, 62

---